

**TOLERANTLIK (BAG'RIKENGLIK) KOMMUNIKATIV TOIFASINI
O'ZBEK MILLIY O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI VA SHAKLLANISHI**

Maxamadaliyeva Nilufar Baxadirovna

O'zbekiston milliy universiteti

2-kurs tayanch doktorant

asatova.n@gmail.com

Qo'chqorova Dilnozaxon Shuxratbekovna

O'zbekiston milliy universiteti

2-kurs tayanch doktorant

adilnoza920@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14205720>

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada tolerantlik hamda o'zbek millatiga xos bo'lgan boshqa kommunikativ toifalari taxlil qilingan. Nutq madaniyati va nutq ta'sirchanligini oshiruvchi omillarning tolerantlik bilan bog'liqligi ko'rib chiqilgan.*

***Tayanch so'zlar:** bag'rikenglik, tolerantlik, xushmomilalik, murosasizlik, muloqot, kommunikativ xulq-atvor...*

***Annotation:** This article analyzes tolerance and other Uzbek communicative categories. The relationship of tolerance between speech culture and factors that increase the effectiveness of speech*

***Key words:** tolerance, politeness, intolerance, communication, communicative behavior...*

Turli xalqlarning kommunikativ hulq-atvorini tahlil qilish bizga bir qator kommunikativ xususiyatlarni (qoidalar, me'yorlar, omillar, kommunikativ xatti-harakatlar ko'rsatkichlari) aniqlash imkonini beradi, ular muloqotda bag'rikenglik xususiyati bilan bog'liq bo'lishi mumkin yoki aksincha, xulq-atvorda shakllanib, an'analarga aylanib qolgan murosasizlik kommunikativ xatti-harakatlarini ko'rsatadi. Boshqacha qilib aytganda, ma'lum bir odamlarning kommunikativ xatti-harakatlarini tahlil qilish tolerantlik belgilarini, xulq-atvor xususiyatlarini, shaxsiyatni rag'batlantiradigan yoki bunday xatti-harakatlarning oldini oladigan ma'lum bir kommunikativ omillar to'plamini aniqlashga imkon beradi.

Turli kommunikativ madaniyatlarda bu ikki guruh xususiyatlarning nisbati sezilarli darajada farq qilishi mumkin, masalan, G'arbiy va Osiyodagi kommunikativ bag'rikenglik madaniyati bilan farq qiladi. Kommunikativ bag'rikenglik etnik jamoani bag'rikeng kommunikativ xulq-atvoriga yo'naltiradigan yoki akincha, murosasizlikka chaqiradigan yoki bunday murosasizlikni kechira oladigan xalqda o'rnatilgan mentalitet qoidalari bilan belgilanadi. Muayyan xalqning kommunikativ

xulq-atvorining bag'rikenglik va murosasizlik xususiyatlari o'rtasidagi munosabatini o'rganish odamlarning kommunikativ ongida bag'rikenglik toifasining namoyon bo'lish darajasi, ularda ushbu toifaning shakllanish darajasi to'g'risida xulosa chiqarishga imkon beradi va ma'lum bir xalqning muloqot amaliyotida bag'rikenglik tamoyilini qay darajada ongida shakllanganligini ko'rsatib beradi.

G'arb xalqiga nisbatan o'zbek xalqining xushmuomalaligi juda yuqori deb baholashimiz mumkin. O'zbek xalqi muloqot qilishni yaxshi ko'radi- ular uchun muloqot hayotning juda muhim qismidir. Bu boshqa odamlar bilan vaqt o'tkazishning muhim usullaridan biridir.

O'zbek xalqi odatda osongina muloqot qiladi. O'zbeklar juda oson tanishadilar. Muloqotga kirishgan o'zbek xalqi ko'pincha rasmiy tanishish tartibidan tezda samimiy muloqotga o'tishga harakat qiladilar. O'zbek shaxsining yuqori xushmuomalaligi sifatida uning kommunikativ xulq-atvorining muhim xususiyatlaridan davralarda, guruhlarda sukunatga toqat qilmasligidir. Ziyofatlarda, to'ylarda, ko'pchilik bo'lgan davralarda jim turishi odatiy hol emasdir. O'zbek xalqining muloqot tizimida hissiyotli nutq juda muhim o'rinni egallaydi, bunda barcha toifadagi muloqotchilar, yoshi, jinsi va ijtimoiy tabaqalanishidan qat'iy nazar hissiyotga berilib gapiradi.

O'zbek xalqining muloqotida kommunikativ xulq-atvor sifatida tanishlar uchun ham, begonalar uchun ham aloqada tenglik, soddalik istagi, kommunikativ tenglik kuzatiladi. O'zbek xalqi oddiy, marosimlarsiz gapirishni yaxshi ko'radi, albatta yoshga nisbatan bo'lgan hurmatni saqlagan holda, bu nutq madaniyatining fazilatlaridan biridir. Madaniy nutq fazilatlarini deyilganda uning mantiqiyliigi, ifodaliyligi, to'g'riligi, va sofligi tushuniladi. Shuningdek yoshlar orasida ham shunday fazilatlar juda ko'p kuzatiladi, masalan, begona bo'lgan katta yoshdagi shaxslarga nisbatan ham hurmat saqlanishi, gapini bo'lmaslik. Bizning fikrimizcha, bu holat qadimdan shakllanib kelayotgan muloqot tizimi ya'ni nutq madaniyati bilan bog'liqdir.

Barchamizga ma'lumki, insoniyat chiroyli va mazmundor nutq masalasi bilan juda qadimdan shug'ullanib kelishgan. Qadimgi Yunoniston va Rimda nutq madaniyatining nazariy asoslari yaratilgan va keyinchalik bu ritorika faning paydo bulishiga sabab bo'lgan. Movarounahrda notiqlik sa'nati tarixi "Avesto" yaratilgan davrga borib taqaladi. O'rta asrlarda ilmiy, badiiy ijodning rivojlanishi bilan birga va'zxonlik, "Qur'on"ni tashviqot qilish kuchaydi. O'z-o'zidan suhandonlik, voizlik

va undan maqsadga muvofiq foydalanish borasida etakchi fikrlar paydo bo'ldi. Va'zxonlik, notiqlik sa'natiga ehtiyoj paydo bo'lishi bilan birgalikda nutq oldiga qo'yilgan talablar ham ortib bordi. Buyuk mutafakkirlar Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Kaykovus, Husayn Voiz Koshifiyning tilga, grammatikaga, lug'atga, suxandonlik, mantiqshunoslik, voizlikka bag'ishlangan asarlarida bu mavzuga bog'liq bo'lgan ko'plab fikrlarga duch kelamiz.

Boshqa ko'plab mutafakkirlar kabi, o'tmishda bag'rikenglik muammosini uning zamonaviy talqinida hali ko'tarmagan edilar, lekin uning bir qator jihatlarini haqiqiy tushunishlari jamiyat haqidagi qarashlarining asosini tashkil etdi, masalan, din misolida olsak bo'ladi. Abu Nasr Forobiy va Abu Rayhon Beruniyning qarashlarida bu narsa yaqqol ko'rinib turibdi. Bag'rikenglikning barcha turlari (diniy, siyosiy, ilmiy, milliy va boshqalar) turli xil darajada Beruniyning asarlarida o'zining jamlangan ifodasini topgan. U kamdan-kam hollarda "er o'z yurti, odamlar faqat o'z xalqining vakillari, podshohlar faqat ularning hukmdorlari, din faqat ularning e'tiqodi, ilm faqat ularda bor narsa ekanligiga"^[1] ishonganlarni kamdan-kam qoralardi. Beruniy "Geodeziya" asarining kirish qismida fanlarning paydo bo'lishi va tarmoqlanib ko'payishi haqida fikr bildirib, har bir fanning inson hayotidagi zaruriy ehtiyojlar talabi bilan yuzaga kelishini aytib o'tadi. Uning fikricha, grammatika, aruz, va mantiq fanlari ana shu ehtiyojning oqibatidir. O'z tuzilishiga ko'ra rostni ham, yolg'onni ham ifodalaydigan "nutq" ayrim bahslarga sabab bo'ladi. Inson bu munozaralar jarayonida rostni yolg'ondan ajratadigan "mezon"ni yaratdi. Bu mantiq fani edi! Mutafakkirning ta'kidlashicha, yaxshi nutq tuzish uchun nahv, aruz, mantiq fanlari hamkorligidan foydalanish zarur bo'ladi. "Ularning birortasiga ahamiyat bermaslik, bulardan birining qoidasining buzilishi qolgan ikkitasiga ta'sir qilmay iloji yo'q"^[2]

Xususan Forobiy jamiyat va insonning paydo bo'lishi va rivojlanishining asosini umuminsoniy ijtimoiy hayotga singib ketgan va mohiyatan bag'rikenglik tamoyillari bilan belgilangan ezgu maqsadlar va rag'batlantirishlar deb bilgan. Forobiy yozganidek, "Haqiqiy baxtga erishadigan masalalarda odamlarni birlashtirishni maqsad qilgan shahar ezgu shaharga aylanadi, odamlar baxtga erishish uchun bir-biriga yordam beradigan jamiyat esa ezgu xalqdir. Xuddi shunday, agar odamlar baxtga erishish uchun bir-biriga yordam bersalar butun er yuzi fazilatli bo'ladi."^[3]

¹ *Abu Rayhon Beruniy / Indiya/Izbrannie proizvedeniya /// Tashkent-1963.C-60.*

² *Beruniy /Tanlangan asarlar/III-tom.Toshkent-1982.b-64.*

³ *Al-Farabi / Sotsialno eticheskie traktati // Alma-ata-1973.b-302.*

Ulug' yurtdoshimiz Abu Nasr Forobiy ham Beruniy fikrlarini to'ldiradi. U notiq mazmundor va go'zal nutq so'zlash uchun leksikologiya, grammatika va mantiqning ahamiyatini shunday ta'kidlaydi: "Qanday qilib ta'lim berish va ta'lim olish, fikrni qanday ifodalash, bayon etish, qanday so'rash va javob berish (masalasi)ga kelganimizda, mazkur bilimlarning eng birinchisi jismlarga (substanstiya-narsalar) va hodisalar (akstidenstiya)ga nom bergan til haqidag ilm, deb tasdiqlayman".^[4]

Qadimgi Sharq pedagogikasining ajoyib asarlaridan biri "Qobusnoma"da ham nutq madaniyati haqida ibratomuz gaplar aytilgan bo'lib, hozirgi kunga qadar ham ma'lum darajada o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Kaykovus tomonidan yaratilgan (1082-1083) "Qobusnoma" pandnomasining oltinchi-ettinchi boblari so'z odobi haqidadir. Asar muallifning farzandiga qilgan pand-nasihatlarini sifatida yozilgan bo'lib, u farzandini muloyim, yoqimli, o'rinli so'zlashga, behudaga gapirmaslikka o'rgatadi. shulardan ayrimlarini misol qilib keltiramiz: "tilingni yaxshi hunar bila o'rgatg'il va muloyim so'zdin boshqa narsani odat qilmag'il. Muloyim so'zga baxil bo'lmagil, xalq muloyim so'z eshitmasa, mol va dunyoga mag'rur bo'lur. Qattiq so'z demagil, toki yaxshi so'z eshitg'aysan. Ammo so'ralmag'on so'zni aytmagil va behuda so'zdan parhez qilg'il".^[5]

Shuningdek, Kaykovusning notiqlarga qo'ygan talablarini ko'rib chiqamiz:

1. "So'zning yuzin va orqasini bilg'il, har na so'z desang yuzi bila degil;
2. Har so'z desang rost degil va be'manilikni da'vo qilg'uvchi bo'lmag'il;
3. Bilmag'on ilmdin dam urmag'il va undin non talab qilmag'il;
4. Har so'zni andisha bilan boshlag'il, toki aytg'on so'zingdan pushaymon bo'lmag'aysan;
5. So'zni va hunarni yaxshi bilsang ham hech bir so'zni sindirmag'il, to'g'ri ta'rif qilg'il va uni bir rangda aytg'il;
6. O'zingni bilg'ondan kamroq tutg'il, to so'zlash vaqtida nodon va beburd bo'lib qolmag'aysan;"^[6]

Alisher Navoiyning atrofida to'plangan alloma, shoir va donishmandlar orasida mashhur va qomusiy ixtidor egalaridan biri bo'lgan notiq Kamoliddin Husayn Voiz Koshifiy ham nutq madaniyati tarixiga xissa qo'shgan ulla molardan biridir. Koshifiy o'z asarlarida ijtimoiy-axloqiy hayot, ma'naviyat masalalariga katta o'rin ajratadi, siyosat, davlatni boshqarish, shoh bilan fuqarolar o'rtasidagi munosabat, jamoani

⁴ Abu Nasr Forobiy / Risolalar // Toshkent-1975 // Fan.b-54.

⁵ Kaykovus / Qobusnoma // Toshkent-1992 // Meros.b-22.

⁶ Kaykovus / Qobusnoma // Toshkent-1992 // Meros.b.33-35bet

idora etish, etuk insonni tarbiyalash muammolari uning ijodida katta o'rin egallaydi. Ayniqsa, uning "Futuvvatnomai sultoniyy yoki javonmardlik tariqati" kitobida ajib fikrlar bildirgan. " Bilgilki, odamzodning sharafi nutq bilan va nutq odobiga rioya etmagan bu sharafdan bebahradir"- deydi notiq. "So'z xamma vaqt savob uchun ishlatishi, to'g'ri va haqqoniy bo'lishi kerak, bo'lmasa jim turgan ma'qulroq"^[7]-deb fikr bildiradi Voiz. E'tiborga loyiq tomoni shundaki, Voiz Koshifiy notiqlarni martabaga erishganlar va martabaga erishmaganlar guruhiga bo'lib chiqadi. Bu guruhlar haqida ma'lumotga ega bo'lish yosh va tajribali notiqlarning farqlarini o'rganishda yordam beradi o'ylaymiz.

"Martabaga erishganlar suhbatda quyidagi olti qoidani saqlashlari kerak:

1. Har kimning ahvoriga qarab, munosib so'z aytsin;
2. Dag'allik qilmasdan, lutf va muloyimlik bilan gapirsin;
3. Gapirayotganda tabassum qilib, ochilib gapirsin;
4. Ovozini baland ko'tarmasin, eshituvchilarga malol keltirmaydigan qilib gapirsin;
5. Odamlarga nafi tegadigan ma'noli gaplarni gapirsin;
6. So'zning qimmati-qadri bamisoli urug'dir, agar urug' puch yoki chirigan bo'lsa, uni qaerga ekmang, unib chiqmaydi;

Martabaga etmaganlarning suhbat odobida sakkizta qoida mavjud:

1. So'ramagunlaricha gapirmasin;
2. Gapirayotganda ovozini baland ko'tarmasin;
3. Gapirayotganda o'ngu-so'lga qaramasin;
4. G'arazli va kinoyali gaplarni gapirmasin;
5. Qattiq gapirmasin va betgachoparlik qilmasin;
6. Pushaymon bo'lmaslik uchun o'ylab gapirsin;
7. Odamlar gapini bo'lib so'z qotmasin;
8. Ko'p gapirmasin; "^[8]- deb maslahat beradi Voiz Koshifiy. Yuqoridagi maslahatlardan ko'rinib turibdiki, Voiz Koshifiy nutq madaniyati haqida mazmunli fikrlarga ega bo'lib, o'sha zamonda ham suhbatdoshga nisbatan qanday munosabatda bo'lish kerakligini ya'ni bag'rikenglikning ma'lum bir yozilmagan tartib-qoidalari mavjud bo'lganligini guvohi bo'lmoqdamiz. Shuningdek, bu maslahatlar katta davralarda suhbat olib boradigan, el e'tiborida bo'lgan shaxslarga, siyosatchilarga

⁷ Komilov N./Komil inson haqida to'rt risola//Toshkent1997.Ma'naviyat.b-227.

⁸.Komilov N./Komil inson haqida to'rt risola//Toshkent1997.Ma'naviyat.b.227-228 bet.

tegishliligidir ya'ni ularning xalq orasida hurmatini qozonishning va saqlab qolishning bir yo'li ekanligini ko'rsatib bermoqda.

Xulosa qilib shuni ayta olamizki, bu ulug' mutafakkirlarning jamiyat haqidagi qarashlaridan oddiy sabr-toqat degan tushunchadan ham kengroq, odamlar, ijtimoiy qatlamlar o'rtasida ma'lum bir faol munosabatlarni nazarda tutuvchi bag'rikenglik tushunchasi mavjudligini ko'rishimiz mumkin.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. *Abu Rayhon Beruniy / Indiya//Izbrannie proizvedeniya ///* Tashkent-1963.b-60.
2. *Abu Nasr Forobiy / Risolalar //* Toshkent-1975 // Fan.b-54.
3. *Al-Farabi / Sotsialno eticheskie traktati //* Alma-ata-1973.b-302.
4. *Beruniy /Tanlangan asarlar//III-tom.Toshkent-1982.b-64.*
5. *Kaykovus / Qobusnoma //* Toshkent-1992 //Meros.b-22,33-35.
6. Komilov N./Komil inson haqida to'rt risola//Toshkent1997.Ma'naviyat.b.227-228.